

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G'IL BOLALARNI HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19191080>

*Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti
kafedrası p.f.n dotsenti*

B.B.Latipov

*Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrası
p.f.b.f.d (PhD) dotsenti*

Sh.O.Aripov

ORCID 0000-0002-7703-0027

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni ahamiyati haqida so'z brogan. O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalari shakllantirishda qadriyatli yondashuvlarning o'rni va ahamiyati kundan-kunga dolzarblik kasb etilayotgani barchamizga ma'lum.

Tayanch so'zlar: maktablar, o'g'il bolalar, hayotiy ko'nikmalar, rivojlantirish, tarbiya, oila, munosabatlar, rivojlanish, xususiyatlar, qadriyatlar;

Аннотация

В данной статье обсуждается важность формирования и развития жизненных навыков у мальчиков в общеобразовательных школах. Всем нам известно, что роль и значение ценностных подходов в воспитании мальчиков и формировании тенденций развития семейных отношений становятся все более актуальными.

Ключевые слова: школы, мальчики, жизненные навыки, развитие, воспитание, семья, отношения, развитие, особенности, ценности;

Annotation

This article discusses the importance of forming and developing life skills in boys in general secondary education schools. We all know that the role and importance of value-based approaches in the upbringing of boys and the formation of trends in the development of family relations are becoming increasingly relevant.

Keywords: schools, boys, life skills, development, upbringing, family, relationships, development, characteristics, values;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas. Jumladan, jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish; jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish kabi ustivor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-

yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni qabul qilindi.

"Pedagogika" ensiklopediyasida oila pedagogikasi – "pedagogika fanining oilada beriladigan ta'lim-tarbiyaning nazariy-amaliy asoslari bilan shug'ullanuvchi alohida tarmog'i" tarzida talqin qilingan bo'lib, oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini bajarishiga xizmat qiladi. O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash muammosi bolaning tug'ilgan kunidanoq boshlanadi, uning to'liq mustaqil shaxs sifatida voyaga yetgunga qadar kattalar nazoratida davom etadi.

Hozirgi davrda jamiyatdagi yangilanishlar kishilarning turmush tarzida ham o'zgarishlar yasamoqda. Hayotda nikohlarning buzilishi kabi salbiy holatlar yuz bermoqda. Bular, odatda, oila yuritishga ham moddiy, ham ma'naviy tayyor emaslik, pedagogik-psixologik savodsizlik, oila xo'jaligini yuritish malakasiga ega bo'lmaslik, yosh oilalarning ota-onaga qaram bo'lib turishi, tekinox'rlik, ma'naviy qashshoqlik sababli paydo bo'lmoqda. Ana shu sharoitlar tufayli umumta'lim maktablaridan o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruriyati paydo bo'ldi.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo'lishi, ularning tarbiya bobida o'zaro birdamligi va tengligi, bahamjihatlik b-n harakat qilishiga bog'liq. Bu jarayonda bolaga qat'iy cheklovlar qo'yilmaydi, kamsitilmaydi.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash asosan ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

oila turmush tarzining ta'siri ostida;

pedagoglarning maxsus tarbiyaviy ta'sir o'tkazishi natijasida.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda pedagogning roli beqiyosdir. Bola hayotining katta qismi aynan pedagogik faoliyat jarayonida kechadi, uning xarakteri, hayotiy qarashlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, ya'ni uning shaxsining fundamental sifatlarini shakllanadi. Aynan shuning uchun pedagog shaxsi – "ulg'ayishning ideal obrazi" hisoblanib, unga ko'ra uning yaxlitligi, uyg'unligi va birinchi navbatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini va ustanovkalari bolaning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish" ta'lim tizimining ustivor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan. Bu o'z navbatida, mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

Odamlarning jamoa bo'lib yashash tamoyillariga "Avesto"da, qadimgi manbalarda, Suqrot, Aflotun, Arastu, O'rta Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalar merosida alohida ahamiyat berilgan[100]. Shuningdek, ta'lim sohasidagi katta amaliy ish tajribasi, bugungi kunda pedagogdan uning faoliyatida kasbiy mahoratning o'zgacha darajasi, yanada kengroq umumiy ma'lumot, umumiy madaniyat, o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga oid, muloqot, o'yin, zamonaviy pedagogik rivojlantiruvchi va insonparvarlik-shaxsiy tizimlar va texnologiyalarga oid chuqur bilimlar va eng asosiysi muhim shaxsiy sifatlar: insonparvarlik, hamkorlikka, refleksiya qobiliyatlilik,

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

inonparvarlik-shaxsiy asosda o'zini-o'zi aktuallashtirish va o'zini-o'zi amalga oshirishga ehtiyoj talab etiladi.

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning muvaffaqiyatliliigi nafaqat rivojlantiruvchi dasturlarning mavjudligi bilan yoki bolaning "irsiy" dasturi bilan, balki pedagog shaxsi, shuningdek o'qituvchi va o'quvchi rivojlanishining ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashni quyidagi integrativ tashkil etuvchilar doirasida o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi: pedagogning kasbiy-shaxsiy insonparvarlik sifatlarining bolaning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi bilan o'zaro aloqadorligida shakllanishi, shuningdek o'qituvchi va o'quvchining mos sifatlarining rivojlanish kompleksining dinamik tizimlarini ishlab chiqish.

T.Qurbonovning tadqiqotlarida o'g'il bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlari ilmiy pedagogik asoslab beriladi. Olimning fikricha, o'g'il bola 3 yoshgacha oilada ota-ona tarbiyasida bo'ladi, 3 yoshdan boshlab, maktabgacha ta'lim muassasasiga boradi, u yerda 4 yil ayol kishi qo'lida tarbiya oladi. Boshlang'ich sinfda 4 yil asosan ayol o'qituvchi, 5-9-sinflarda ham unga deyarli ayol o'qituvchilar ta'lim-tarbiya beradi. Demak, o'g'il bola ayni xarakteri shakllanib, hayotga tayyorlanadigan 13-14 yil o'smirlik davri ayollar tarbiyasida o'tadi. Shu sababli ularda erkak kishidagi jasurlik, botirlik, qattiqqo'llik, chidamlilik va epchillik ko'pincha yetishmaydi[76, 10-b.].

F.Xidirovaning fikricha, o'g'il-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash mezonlari: nikoh va oila munosabatlari, oilaviy hayotni tashkil etish, uy xo'jaligini boshqarish, oila a'zolari salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi masalalar yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishdan iborat. Tadqiqot ishlarining ko'rsatishicha, o'g'il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashning eng samarali davri bu ularning o'smirlik yoshi hisoblanadi.

N.M.Nagmetova o'zining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'smirlar mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish" nomli tadqiqot ishini Qoraqalpog'iston Respublikasi maktablarining o'smir o'g'il bolalari misolida olib borgan bo'lib, "Adabiyot", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlarining mazmunini o'smir o'g'il bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashga ustuvorlik berish asosida sifat va samaradorligini ta'minlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ajratib ko'rsatgan.

Shundan kelib chiqqan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashni tadqiq etishda biz maktabda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini va ma'lum mezonlar bo'yicha bolaning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi qonuniyatlarini o'rganishga nazariy anglash va amaliy o'zlashtirish yondashuvlari xizmat qilishiga e'tibor qaratamiz. Shu asosda pedagogning o'zini-o'zi rivojlantirishining kompleks ma'naviy-axloqiy dasturlari, shuningdek umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash dasturlari ishlab chiqilishi mumkin bo'lib, bu tadqiqot ishimizning muammosini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz>

2.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni. <https://lex.uz>

**Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy
ko'nikmalarni rivojlantirish**

3. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

4. Xayrullayev M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida / Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. 1 -kitob. T.: O'zPFITI, 1992. -110 b.

5. https://pikabu.ru/story/sotsialnaya_filosofiya_xviii_veka_zhanzhak_russo_6544057

6. Aripov Sh.O. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... dis. – Farg'ona, 2023. 133 bet.